

## UMUMIY O'RTA TA'LIMNING ONA TILI DARSLIKLARIDA LUG'AT TARKIBI TALQINLARI

**Mamlakat Umirova**

*ISFT instituti "Filologiya"*

*kafedra o'qituvchisi*

### Abstract

*The educational value of mother tongue instruction in ordinary secondary schools is covered in this article, which was published in 2022. Regarding the picture assignment on synonyms and terms from the current sixth-grade textbook, there are thorough, methodological recommendations. Furthermore, particular lexical-grammatical characteristics of synonymous terms and sentences were explored.*

### Key words

*phraseological meaning, cluster, figurative expression, semantic synonyms, stylistic synonyms, speech synonyms, and labor in small groups.*

Ta'lim va tarbiya – yaxlit tushuncha. Yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash umumiy o'рта ta'limda tarbiyaviylik tamoyilining tub mohiyatini tashkil etadi. Ona tili darslarida ta'limiy maqsadlar bilan bir qatorda sharqona tarbiyani bolalarga singdirib borishning imkoniyatlari, ayniqsa, kengroqdir. Darsliklardan joy olgan mavzular yuzasidan berilgan topshiriqlar shu maqsadni amalga oshirishga imkon beradi.

O'quvchi berilgan topshiriqlar asosida ishlash jarayonida ta'limiy ko'nikmalarni hosil qilish bilan bir qatorda kuzatish, qiyoslash ko'nikmalarini, ijodiy tafakkurlarini ishga soladi. Darslikda keltirilgan matnlar asosida grammatik topshiriqlarni bajarish majburiyati bilan bir qatorda so'z boyligini ham oshirib boradi, tarbiyaviy bilimlarga, hayotiy ko'nikmalarga ham ega bo'lib boradi.

"Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tazatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'stirmakdur. Tarbiya qiluvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl maraziga "yaxshi xulq" degan davoni ichidan, poklik degan davoni ustidan berub, katta qilmog'i lozimdur". [1]

Darhaqiqat, ona tili darsliklari buyuk ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, o'quvchilarning grammatik bilimlarini shakllantirish bilan bir qatorda "yaxshi xulqlarni o'rgatmak"ka hamda "yomon xulqlardan saqlab o'stirmak" ka, yoshlarni axloqiy va ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada maktablarda hozirgi kunda amalda foydalanilayotgan 6-sinf o'quvchilari uchun chiqarilgan (2022-yil) ona tili darsligining "Ko'z nurini asraylik" bo'limidan o'rin olgan ayrim topshiriqlar haqida to'xtalib o'tmoqchiman.

Darslikdagi "Ko'z nurini asraylik" bo'limida ko'z haqida va uning salomatligi yuzasidan foydali tavsiyalar o'rin olgan. O'quvchilarning matn bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish yuzasidan, jumladan, matn qismlarini ajratish va ularni farqlash, matn qismlariga sarlavha tanlashni mashq qilishga doir topshiriqlar berilgan. Iboralar, olmoshlar, fe'lining shaxs-son va zamon qo'shimchalari, kesim va uning ifodalanishiga doir ma'lumotlar va topshiriqlar keltirilgan. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarning hayotiy tasavvurlarini, dunyoqarashlarini, ma'naviy axloqiy tarbiyasida jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotli matnlar, rasm asosidagi topshiriqlar ham o'rin olgan.

Darslikning 50-betida berilgan topshiriqda rasmda berilgan ko'z qarashlariga mos so'zlarni topish so'raladi. Darslikda shunday fikr keltiriladi: "1. Odamlar his-tuyg'ularini o'zgalarga so'z orqaligina emas, balki yuz ifodalari bilan ham yetkaza oladilar. Ayting-chi, ko'zlarimiz orqali ushbu holatlarni qanday amalga oshiramiz? Mashq qilib ko'ring". "Rasmda berilgan ko'z qarashlariga mos so'zlarni toping" [5].

Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilarda sinonim (ma'nodosh) so'zlar yuzasidan nazariy bilimlarni mustahkamlash, ulardan nutqiy faoliyatda o'rinli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Shu o'rinda sinonim so'zlarga oid grammatik qoidani eslatib o'tmoqchiman. Sinonimlar bir umumiy ma'noga ega bo'lgan so'zlar bo'lsa-da, nozik ma'no farqlariga ega. Bu jihatdan sinonimlarni ma'no sinonimlari, uslubiy sinonimlar, nutqiy sinonimlar kabi turlarga ajratish mumkin.

### **Ma'no sinonimlari** (*ideografik sinonimlar*)

Bunday sinonimlar ma'no qirralari bilan farqlanadi. Masalan, achchiqlanmoq, g'azablanmoq, qahrilanmoq leksemalari "g'azabi kelmoq" ma'nosi bilan bir sinonimik qatorga birlashadi, ammo ularda shu ma'noni ifodalash darajasi bir xil emas, u "achchiqlanmoq"dan "g'azablanmoq"qa, "g'azablanmoq"dan esa "qahrilanmoq"qa qarab kuchayib boradi.

### **Uslubiy sinonimlar** (*stilistik sinonimlar*)

Bunday sinonimlarning leksik ma'nosi ijobiy yoki salbiy bo'yoqlar (uslubiy semalar) bilan qoplangan bo'ladi, ayni shu uslubiy semalar sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi qiymatini belgilaydi.


**Nutqiy sinonimlar** – nutqning u yoki bu turiga xoslanishi bilan o'zaro farqlanadigan sinonimlar. Masalan, ozgina, picha, sal, xiyol, jinday, qittay, jichcha qatoridagi "ozgina" leksemasi nutqning barcha ko'rinishlarida (adabiy nutqda ham, so'zlashuv nutqida ham) qo'llana olgani holda, picha, xiyol, jinday, qittay, jichcha leksemalari faqat so'zlashuv nutqiga xoslangan. [7]

Ko'z qarashlari yuzasidan berilgan topshiriq asosida ma'nodosh so'zlarning yuqorida keltirilgan 3 xil jihatga ko'ra farqlarini anglash, ko'nikmasini shakllantirish jarayoni, o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, odamlarga bo'lgan muomala madaniyatini shakllantirish va insonlarning ichki olami, munosabatlarini bilib olish imkoniyatini beradi. Rasmdagi ko'z qarashlaridan hayotdagi voqealar yoki turli toifadagi insonlarni to'g'ri anglashni o'rganish mumkin. O'quvchi ushbu topshiriq orqali ushbu grammatik qoidani amaliy ko'nikma orqali tushunib olish bilan bir qatorda, hayotiy tasavvurlarini boyitish imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

Ushbu topshiriqni bajarish jarayonini bir necha bosqichlarda olib borish mumkin. Avvalo, o'quvchilar rasmni diqqat bilan kuzatadilar. Tasvirdagi ko'z qarashlarini ifodalovchi so'zlarni o'qituvchi nazorati ostida topadilar. Ularning ma'nodosh so'zlar ekanligi, umumiy ma'noga ega bo'lsa-da, o'ziga xos farqli tomonlari borligiga ishonch hosil qiladilar. O'qituvchi yordamida sinonimik qatordagi so'zlarning izohini bilib oladilar.

O'qituvchi, avvalo, qaramoq so'zining lug'aviy ma'nosini eslatadi. "Qaramoq" so'zi "ko'rish uchun ko'zni biror tomonga, narsa yoki kimsaga yo'naltirish" ma'nosini anglatadi. Masalan: Atrofga qaramoq, soatga qaramoq. Ushbu so'zning bir nechta sinonimlari bor. Rasmda raqamlab berilgan tasvirga mos so'zlar topilgandan so'ng ularning har birining izohiga mukammalroq yondashiladi, ularning ma'noviy farqlari izohlanadi.

"Qaramoq" so'zining sinonimlari haqida to'xtalib o'taman. *Javdiramoq* (rasmdagi 1-tasvir). Najot izlab, iltijo bilan qaramoq, termilmoq. Poshsha kampir o'g'lining javdiragan nigohiga dosh berolmadi. (N. Qilichev). *Ko'z qiri bilan qaramoq* (rasmdagi 2-tasvir). *Ko'zining bir chekkasi bilan* (yon tomoni bilan) *qaramoq*.



Gavhar ko'z qiri bilan Zulayxoga, keyin Abduxalilga qaradi. (O'. Hoshimov, "Qalbingga quloq sol") Boqmoq (rasmdagi 3-tasvir). Nazar tashlamoq, nazar solmoq, qaramoq. Dengiz suvidek tiniq ko'zlari muloyim va mehr bilan boqardi. (Sh. Karomatov, "Oltin qum")

Xo'mraymoq (rasmdagi 4-tasvir). Qovog'ini solib tikilmoq, yomon ko'z bilan qaramoq. Gavhar menga xo'mrayib qaradi-yu, ters o'girildi. (S. Siyoyev, "Yorug'lik")

Olazarak bo'lmoq (rasmdagi 5-tasvir). U yoq-bu yoqqa besaranjom qaramoq, alang-jalang bo'lmoq. Qiyomxon atrofga olazarak bo'lib qaragach, darvozaxona yonidagi xarobaga ishora qildi. (N. Aminov, "Qahqaha")

Tikilmoq (rasmdagi 6-tasvir). Ko'z uzmasdan qaramoq, uzoq qaramoq; diqqat-e'tibor bilan nazar solib boqmoq. Abdug'afur ota hamsuhbatini birinchi marta ko'rayotgandek, unga qattiq tikildi. ("Sharq yulduzi")

Ko'z(ni) olaytirmoq (rasmdagi 7-tasvir). Ko'zlarini ola-kula qilib qaramoq, ko'zlarini o'ynatmoq, o'qraytirmoq. Qiz ko'zlarini olaytirib, Elmurodning yuziga qaradi. (P. Tursun, "O'qituvchi")

Termilmoq (rasmdagi 8-tasvir). Ko'z uzmasdan uzoq qarab qolmoq, tikilmoq, umid bilan, biror ichki hissiyot bilan boqmoq. Asrora uzoqlarga termilib turib allanimalarni o'ylardi. (S. Ahmad, "Ufq") [4]

Darslikdagi ko'z qarashlari yuzasidan berilgan rasm asosidagi topshiriqda sinonimik qatordagi so'zlarni yuqoridagi uch turiga ko'ra izohlaymiz.

Sinonimik qatordagi so'zlar bir-biridan nozik ma'no qirralariga ko'ra farqlanadi. Masalan, "Javdiramoq" so'zi "najot izlab, iltijo bilan qaramoq" ma'nosini anglatadi, "termilmoq" so'zi esa "ko'z uzmasdan uzoq qarab qolmoq, tikilmoq" ma'nosini anglatadi. "Qaramoq" qatoriga mansub bo'lgan sinonimlarni **ma'noviy sinonimlar** deb atash mumkin.

Masalan, javdiramoq, tikilmoq, termilmoq kabi so'zlarda ijobiy bo'yoq mavjud bo'lsa, xo'mraymoq, olaymoq so'zlarida salbiy bo'yoq mavjud. Ya'ni ushbu so'zlar **uslubiy sinonimlar** (stilistik sinonimlar) bo'lib, ijobiy va salbiy bo'yog'iga ko'ra farqlanadi. Sinonimik qatordagi so'zlar nutqning u yoki bu turiga ko'ra xoslanadi. Masalan, javdiramoq, mo'ltiramoq, xo'mraymoq, olaymoq kabi so'zlar so'zlashuv uslubiga xos. Bu jihatdan ularni **nutqiy sinonimlar** qatoriga kiritish mumkin.

Ko'z qarashlari yuzasidan berilgan ushbu topshiriq o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda, ularning axloqiy qarashlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ona tili darslarida tilshunoslik fanining bo'limlari yuzasidan bilim va ko'nikmalar hosil qilish bilan bir qatorda, o'quvchilar ongiga sharqona tarbiyani tobora singdirish imkoniyati ham keng. Darhaqiqat, darslikning 56-betida berilgan rasm asosidagi topshiriqda tana a'zolarining nomi ishtirok etgan iboralarni yozish so'raladi. Bu topshiriq o'quvchilarda iboralar yuzasidan grammatik bilimlar hosil qilish, nutqiy madaniyatni shakllantirish vazifasini, shular bilan bir qatorda iboralar (obrazli ifodalar) yordamida ma'naviy, axloqiy tushunchalarini takomillashtirish vazifasini o'taydi.

Qismlari qat'iy bir qolipga kirib, barqarorlashgan, ko'chma ma'no anglatib, gapda butunligicha bir bo'lak vazifasida keladigan, obrazli, jozibali barqaror birikma frazeologik birikma (ibora) deyiladi: Eshon mayizning tagiga **turna ekibdi** ("tugatmoq"). Frazelogik ma'no obrazli va jozibali bo'ladi. Shu xususiyati bilan so'zning leksik ma'nosidan farqlanadi. Chog'ishtiring: xufiya – yeng ichida, beqiyos – yer bilan osmoncha. Frazelogik ma'no ibora tarkibidagi biror so'zning ko'chma ma'nosiga asoslanishi (ishning ko'zi, gapning tuzi) yoki tarkibidagi qismlarning umumiy ma'nosiga tayanib ko'chma ma'no ifodalashi mumkin (og'zi qulog'ida, bel bog'lamoq). Yoxud tarkibidagi qismning ma'nosiga mutlaqo aloqasi bo'lmagan ma'no anglatadi (yulduzni benarvon uradi, yuragiga qil sig'maydi). [2]

Rasmda bola hamda uning tana a'zolari, ya'ni boshi, burni, og'zi, tishi, barmoqlari, bilagi, qulog'i, ko'zi, bo'yni, qo'li va oyog'ining rasmi keltiriladi. Ushbu rasm asosidagi topshiriqni

o'quvchilarga "Kichik guruhlar bilan ishlash" metodi orqali bajartirish mumkin. O'qituvchi sinf o'quvchilarining bilim darajasini hisobga olgan holda 4 kichik guruhni shakllantiradi va guruh sardorlarini a'zolar yordamida tayinlaydi, guruhlar nomlanadi. Rasm asosidagi topshiriq *lister* usulida beriladi. Har bir rasmdagi inson a'zosi rangli tasvirda alohida-alohida varaqchalarga chizilgan bo'ladi. O'quvchilarga guruh a'zolari bilan birgalikda inson a'zolari tasvirlangan qog'ozchalarning orqasiga uchtadan ibora yozish topshiriladi. Bu topshiriqni bajarish jarayonida, avvalo, o'quvchilarning tilimizning leksik imkoniyatlarini qay darajada o'zlashtirganliklari namoyon bo'ladi, shu bilan bir qatorda o'quvchilarni ahillik, topqirlik, hozirjavoblik, raqobatbardoshlik ruhida tarbiyalashga erishiladi.

Quyida rasmdagi inson a'zolari nomlari ishtirok etgan iboralarga misollar keltiraman.

**Soch:** tepa sochi tikka bo'lmoq, sochiga oq oralagan, sochi oqardi.

**Burun:** burni ko'tarilgan, burnini suqmoq, burnidan ip o'tkazib olmoq.

**Og'iz:** og'zi ochilib qolmoq, og'zidan gullab qo'yimoq, og'zi qulog'iga yetmoq.

**Tish:** tishi o'tmaydi, tishini qayramoq, tishini tishiga qo'yimoq.

**Barmoq:** besh barmoq baravar emas, barmoq bilan sanarli, barmog'ini tishlamoq.

**Bilak:** bilak shimarib ishga kirishmoq, bilagi zo'r.

**Quloq:** qulog'i ding bo'ldi, qulog'i tom bitmoq, quloqqa lag'mon ilmoq.

**Ko'z:** ko'zi uchib turgani yo'q, ko'zi ochilmoq, ko'z ilg'amas.

**Bo'yin:** bo'yniga qo'yimoq, bo'yniga ilmoq, bo'yni yo'g'on.

**Qo'l:** qo'lini sovuq suvga urmaslik, qo'li egri, qo'ling dard ko'rmasin.

**Oyoq:** oyog'iga bolta urmoq, oyoq osti bo'lmoq, oyoqdan qolmoq. [5]

Iboralar yuzasidan berilgan ushbu topshiriq o'quvchilarning so'z boyligini oshirish bilan bir qatorda, ularni ona tilimizga muhabbat ruhida tarbiyalaydi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili fanidan olib boriladigan o'quv mashg'ulotlari farzandlarimizning axloqiy barkamol bo'lib ulg'ayishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili o'qituvchilari, o'zlarida ona tili o'qituvchisi obrazini yarata olishi kerak deb o'ylayman. Shunda ona tili darslari tilimizning leksik-grammatik xususiyatlarini o'rgatish bilan bir qatorda, farzandlarimizning chin insoniy sifatlar bilan kamol topishiga xizmat qiladi.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. ZIYO.COM kutubxonasi
2. Mengliyev B., Xoliyorov O. O'zbek tilidan universal qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2008.
3. Mavlonova K. M. va boshqalar. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022.
5. O'zbek tili izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022.
6. O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. 2 jildli. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022.
7. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.
8. G'ulomov A., Qodirov M. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.